

YOSHLARDA VAFODORLIK VA SADOQAT FAZILATLARI SHAKILLANTIRISH MEZONLARI

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Samarqand filiali talabasi Axmatqulov Jasur*

Anotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda vafodorlik va sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mezonlari dinshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Islom dini manbalari – Qur'on va hadislar asosida bu fazilatlarning mohiyati ohib berilgan, shuningdek, ularni yosh avlod ongiga singdirishning amaliy yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada oila, diniy ta'lim, tarixiy shaxslar namunasi va ijtimoiy faoliyat kabi omillar asosiy tarbiyaviy vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Dinshunoslik yondashuvi orqali vafodorlik va sadoqat yoshlarning axloqiy kamolotida nechog'li muhim ekani asoslanadi. Maqola yoshlarda ma'naviy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Vafodorlik. Sadoqat. Axloqiy tarbiya. Yoshlar ma'naviyati. Diniy qadriyatlar. Dinshunoslik. Qur'on va hadis Oila tarbiyasi. Islom axloqi Ma'naviy yetuklik Fazilatli jamiyat Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy (tarixiy shaxslar)

Kirish

Bugungi kunda yoshlарimizni turli xil yot va zararli g,oyalar va vayronkor g,,oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g,,ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma"naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo,,lgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir[1]. Zero, bu global o,,zgarishlar davrida uzlusiz ta"lim tarbiya tizimining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu boisdan ham o,,tmishimiz va kelajagimiz uchun qudrat bag,,ishlaydigan milliy iftixor tuyg,,usi bilan biz yangi avlodlarni tarbiyalashimiz, o,,z milliy davlatchiligmizni mustahkamlab borishimiz lozim. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlodga etkazishning infrastrukturasi va texnologiyasini yanada takomillashtirish masalasi zararli va yot g,oyalarni, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf qilish orqali ularning mafkuraviy immunitet shakllanishi muhim omili ekanini hayotiy tajribaning o'zi isbotlamoqda.

Islom dini bu borada chuqr ma'naviy asos yaratib bergen. Qur'oni karim va hadislar orqali musulmon insonning vafodor va sodiq bo'lishi, va'dasiga rioya qilishi, o'z so'zida turishi eng oliy axloqiy qadriyat sifatida ta'kidlanadi. Dinshunoslik esa bu

fazilatlarning mohiyatini tahlil qilib, ularni yoshlar tarbiyasiga qanday tadbiq etish mumkinligini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar yoritilib, yoshlarda vafodorlik va sadoqat fazilatlarini shakllantirishning asosiy yo‘llari va mezonlari keng muhokama qilinadi.

Asosiyqism:

Vafodorlik va sadoqat – diniy qadriyat sifatida ; Islom dinida vafodorlik (vafo) va sadoqat (sodiqlik) fazilatlariga alohida e’tibor berilgan. Qur’oni karimda va Hadislarda bu fazilatlar mo‘minlarning ajralmas sifatlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) o‘z hayotlarida vafodorlik va sadoqatning eng oliv namunalarini ko‘rsatganlar. U zotning eng buyuk nomlaridan biri – “Al-Amin” (ishonchli, vafodor) bo‘lib, bu xulqiy fazilatning Islomdagagi o‘rni naqadar yuksak ekanligini anglatadi. Zamonaviy jamiyatda axloqiy inqiroz, virtual dunyoga haddan tashqari bog‘lanish, madaniy begonalashuv yoshlar ongida ayrim salbiy tendensiyalarni yuzaga keltirayotgani sir emas. Shu sababli, diniy-ma’naviy tarbiya orqali yoshlarda vafodorlik va sadoqat fazilatlarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Milliy va diniy qadriyatlarimizdan yana biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning “Ibodat o‘n qism bo‘lsa, shundan to‘qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir”, degan o‘gitlari halollik maqomi qanchalar yuksak ekanini ko‘rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi.

Yana shu o‘rinda Navoiy bobomiz o‘gitlari yodga keldi. Buyuk mutafakkir barkamollik namunasi bo‘lgan Farhodni tavsiflab, “Demangkim, ko‘zi poku ham so‘zi pok, Dili poku, tili poku ham o‘zi pok”, deydi. Halollikning eng muhim jihatlaridan biri o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, firibgarlik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi bu kishilar multiga tajovuz va xiyonat qilishdan tiyilish sanaladi. Halollikning muhimligidan, unga olib boruvchi vositalarning barchasi, ayniqsa, mehnat qilish, kasbu hunar bilan shug‘ullanish ham islomiy qadriyatlar orasida alohida o‘rin tutadi. Kishilar haqiga ko‘z olaytirish, tama‘girlik muqaddas dinimizda qoralanadi. Hadisi sharifda “Inson o‘z qo‘li bilan ishlab topgan luqmasidan shirinroq ne’mat yo‘q”, ekanligi ta’kidlangan. Biz bu hadis orqali farzandlarimizga mehnatsevarlikni, halol yo‘l bilan ishlab mablag‘ topishni ta’kidlashimiz mumkin bo‘ladi. Payg‘ambarimizning“ Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng ”Экономика и социум“ №12(103)-2 2022 www.iupr.ru 678 otangga yaxshilik qil. ”degan hadisni eslatish orqali biz ota-onaga bo‘lgan mehrmuhabbatni yanada kuchaytirishimiz mumkin. Ibn Abbas raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, u zot: “Bir musulmon insonning musulmon ota-onasi bo‘lsa, ularga yaxshilik qilib, uning savobini kutgan holda tong ottirgan bo‘lsa, Alloh taolo unga jannatning ikki eshigini ochadi. Agar faqat biri bo‘lsa bir eshikni ochadi. Agar farzand ota-onadan birining g‘azabini chiqargan bo‘lsa, undan o‘sha shaxs rozi

bo‘lmaqunicha, Alloh rozi bo‘lmaydi”, dedilar. “Ota-onha unga zulm qilgan bo‘lsa hammi?” – deyildi. “Zulm qilgan bo‘lsalar ham” – dedilar. Bu kabi rivoyat va hadislar ko‘plab namuna va misollar keltirish orqali yosh avlod ruhida va qalbida milliy va diniy qadriyatlarimizni shakllantirib boramiz. Bu esa ularning tarbiyasida o‘zining ijobiy rolini bajaradi.

Shakllantirish mezonlari:

1. Qur’on va hadis asosida tarbiya: Yoshlarga Qur’on oyatlari va hadislar orqali vafodorlik va sadoqatning diniy asoslari o‘rgatilishi lozim.
2. Oila muhitining ta’siri: Vafodorlik avvalo oilada shakllanadi. Ota-onalarning o‘zaro hurmati, sadoqati bolalarda bu fazilatlarni paydo qiladi.
3. Masjid va diniy ta’limotlar: Masjidlardagi darslar, imom-xatiblar orqali yoshlarga sodiqlik va vafodorlik fazilatlari haqida muntazam tushunchalar berilishi kerak.
4. Real hayotiy namunalar: Tarixiy shaxslar (masalan, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy) va zamonaviy fidokor insonlarning hayotidan namunalar keltirish.
5. Ijtimoiy faoliyatga jalb etish: Volontyorlik, jamoaviy ibodat, jamiyatga xizmat ko‘rsatish kabi amaliy ishlar orqali yoshlarda ushbu fazilatlar mustahkamlanadi.

Xulosa: Dinshunoslik nafaqat diniy matnlarni o‘rganadi, balki ular orqali jamiyatda axloqiy qadriyatlarning shakllanishini tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, vafodorlik va sadoqat yoshlar axloqining poydevori bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu fazilatlar Islom ma’naviyati bilan uyg‘un holda yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mas’uliyatini belgilaydi. Zero, milliy g., oyamizda aks ettirgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, hamda milliy tiklanishdan-milliy yuksalish kabi g., oyalar albatta, yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. **Qur’oni karim** – Islomning asosiy muqaddas kitobi, vafodorlik va sadoqatning diniy asoslari.
2. **Muhammad (s.a.v.) – Hayoti va axloqi.** Buxoriy, Imom. (1997). – Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vafodorlik va sadoqatga oid hadislar to‘plami.
3. **Islom axloqi.** Yusupov, A. (2010). – Islomda axloqiy fazilatlar va ularning ahamiyati haqida ilmiy tadqiqot.
4. **Dinshunoslik asoslari.** Tursunov, M. (2015). – Dinshunoslik fani va uning yoshlar tarbiyasiga qo‘llanilishi.
5. **Yoshlar tarbiyasi: diniy-ma’naviy yondashuv.** Atoyev, Sh. (2018). – Yoshlar tarbiyasida diniy qadriyatlarning roli.

6. **Sodiqlik va vafodorlik: Islomiy yondashuv.** Karimov, S. (2012). – Islomiy qarashlar nuqtai nazaridan sadoqat va vafodorlik.
7. **Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.** Xodjaev, B. (2020). – O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlar.
8. **Hadislар va ularning yoshlar tarbiyasiga ta’siri.** Shodiev, A. (2016). – Hadislarning axloqiy tarbiya uchun ahamiyati.
9. **Oila va yoshlar: tarbiyada diniy yondashuv.** Mirzaev, D. (2014). – Oila va yoshlar tarbiyasidagi diniy yondashuvlar.
10. **Vafodorlik va sadoqat fazilatlari: ilmiy tahlil.** Xasanov, T. (2017). – Vafodorlik va sadoqatning yoshlar axloqidagi o‘rni.